

## KOREYA RESPUBLIKASI SUG'URTA TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### **Ikramova Mehribon Abdushukurovna**

ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti stajor-o'qituvchisi

Telefon:+(99899)9846252

[ikramovamehribonu@gmail.com](mailto:ikramovamehribonu@gmail.com)

### **Sherov Rasul Ravshanovich**

ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti stajor-o'qituvchisi

Telefon:+(99897)7087660

[rasulsherov@gmail.com](mailto:rasulsherov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Koreya iqtisodiyotida sug'urta tizimining muhim ahamiyat kasb etishi, sug'urtalash jarayoning shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urta sohalari va turlari hamda sug'urta kompaniyalari haqida atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'urta, sug'urta sohalari, sug'urta turlari, sug'urta faoliyati

Bugungi kunda sug'urtalash jarayoni ikki tomonlama manfaatni aks ettiruvchi muhim yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Sug'urtaning ahamiyati aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qilishi bilan ham muhim hisoblanadi. Buni tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi hamda mol-mulkni sug'urtalash misolida ko'rish mumkin. Yurtimizda ham so'nggi yillarda sug'urta borasida zamonaviy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich 2018-yil 9-noyabr kuni tibbiyot xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda barcha olib borilayotgan islohotlar inson farovonligiga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdilar. Shu munosabat bilan 2021-yildan yurtimizda ham majburiy tibbiy sug'urta tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishini ta'kidladilar<sup>1</sup>.

Koreya Respublikasi iqtisodiyotida ham sug'urtaning tutgan o'rni katta va ahamiyatli hisoblanib, jahonda sug'urta mukofotlarini to'plash miqdori bo'yicha yuqori o'rinni egallaydi. Shuningdek, mamlakat aholi va korxonalarining vaqtincha bo'sh mablag'larini iqtisodiyotga jalb etishda sug'urta kompaniyalari o'ziga xos mavqega ega.

Bugungi kunda Koreya Respublikasida aholini ijtimoiy himolash eng muhim vazifalardan biri hisoblanib, bu sohada aholini sug'urtalash eng ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda sug'urta tizimi dastlab 1977-yilda tibbiy sug'urtani joriy etish orqali yo'lga qo'yilgan. Uning qonuniy asosi esa 1963-yilda "Tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonun hujjatining qabul qilinishi bilan bog'liq. Bu davrda 500 dan ortiq ishchi xodimlarga ega bo'lgan korxonalar tibbiy sug'urta qonuni asosida ishchilarni korporativ sog'liq sug'urta fondiga majburiy a'zo qila boshlagan. 1989-yilda mamlakat barcha aholisini to'liq tibbiy sug'urta lashga erishdi. 12 yil ichida erishilgan natija butun dunyoda eng qisqa muddat hisoblanadi. Shundan boshlab tibbiy sug'urta aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Koreya Respublikasida 1998-yilda "Milliy tibbiy sug'urta korporatsiyasi" tashkil etildi<sup>2</sup>.

Koreya Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi<sup>3</sup>:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2018/11/09>.

<sup>2</sup> [www.healthcareinternational.com](http://www.healthcareinternational.com)

<sup>3</sup> Kyung – Won Cho. "Korean Life Insurance Market" An Overview Of Sales and New Issues. Korean Insurance Development Institute. 2016. LL Global, Inc.™. 25 p.

tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi;

zararni sug'urtalash (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Bundan tashqari Koreya Respublikasida hayotni sug'urtalashning qisqa va uzoq muddatli turlari ham mavjud. Qisqa muddatli hayot sug'urtasi – 1-5-yil uchun sug'urtalanadi. Bunda agar sug'urtalanuvch mazkur muddat ichida vafot etmasa hech qanday to'lov yoki sug'urta pulini qaytib olish huquqiga ega bo'lmaydi. Qisqa muddatli sug'urta turlari:

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash

Betoblik sug'urtasi

Avtomobil sug'urtasi

Temir yo'l vagonlari sug'urtasi

Samolyotlar sug'urtasi

Kemalar sug'urtasi

Yuklar va transport sug'urtasi

Mulklarni yong'in va tabiiy ofatlardan sug'urtalash

Transport haydovchilarning fuqarolik javobgarligi sug'urtasi

Avtokompaniya egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi

Kema egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasi

Umumiy javobgarlik sug'urtasi

Kredit sug'urtasi

Xodimlarni zarardan sug'urtalash

Moliyaviy zararlar sug'urtasi

Sud xarajatlari bo'yicha to'lovlar sug'urtasi

Uzoq muddatli hayot sug'urtasi – mijozning butun umrida amal qiluvchi sug'urta hisoblanadi. Bunda sug'urtalanuvchi doimiy to'laydigan to'lovni investitsiya sifatida ham vaqtinchalik foydalanish imkoniga ham ega bo'ladi<sup>4</sup>. Uzoq muddatli sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

Hayotni sug'urtalash

Nikoh va farzand tug'ilishi sug'urtasi

Uzluksiz sog'liq sug'urtasi

Tonting (davlat tomonidan kredit shirkatlari bilan qarz munosabatlari) sug'urtasi

Kapitalni qaytarish sug'urtasi

Pensiya sug'urtasi

Boshqa turdagi uzoq muddatli sug'urtalar

Mamlakatda 2020-yildagi mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyati o'rganilganda, 55 ta sug'urta kompaniyasi mavjudligi, ulardan Hayotni sug'urtalovchilar soni 24 ta (15 ta mahalliy va 9 ta xorijiy sug'urtalovchilar), no hayot sug'urtalovchilar esa 31 ta (14 ta mahalliy va 17 ta xorijiy sug'urtalovchilar)ni tashkil etgan. Bu kompaniyalar hozirda ham o'z faoliyatini olib bormoqda<sup>5</sup>.

Koreya Sug'urta Institutining ma'lumotlariga ko'ra 20 yoshga yetgan har 100 tadan 94 ta aholi birdan ortiq sug'urta polislariga ega. Jami aholining 94% i sug'urtani rasmiylashtirgan. Aholini o'z hayotini sug'urtalash ko'rsatkichi 73,4% ni tashkil etsa, mulkni sug'urtalash 76,2%ni ko'rsatadi<sup>6</sup>.

Koreyada jami sug'urta mukofotlari 2020-yilda 194 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu inflyatsiyani hisobga olgan holda 2019-yilga nisbatan 5,1 foizga oshdi. Koreya sug'urta bozori jami mukofotlar hajmi bo'yicha ettinchi o'rinni egalladi, jahon miqyosida bozor ulushi 3,1% ni tashkil etdi.

2020-yilda hayotni sug'urtalovchilar uchligining (Samsung, Hanwha, Kyobo) bozor ulushi biroz pasayib, 46,5% ga tushdi. Boshqa tomondan, eng yaxshi to'rtta hayot bilan bog'liq bo'lmagan sug'urtalovchi

<sup>4</sup> [www.healthcareinternational.com](http://www.healthcareinternational.com)

<sup>5</sup> <http://naver.com>, <http://www.e-insmarket.or.kr> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>6</sup> Robert P. Hartwig. "International Insurance FACT BOOK" Insurance Information Institute. 2015.

kompaniyalarning (Samsung, Hyundai, DB, KB) bozordagi ulushi 2019 yildagi 67,2 foizdan 2020 yilda 68,5 foizgacha oshdi.

### Sug'urta kompaniyalarining bozordagi ulushi

	Ranking	Company	Market share				
			2016	2017	2018	2019	2020
Life	1	Samsung Life	23.3	23.1	22.7	24.1	22.2
	2	Hanwha Life	12.7	12.1	12.8	12.0	12.4
	3	Kyobo Life	10.2	10.2	11.0	10.6	11.9
	4	Mirea Asset Life	4.9	4.9	5.3	6.2	5.8
	5	Nong Hwug Life	7.9	7.1	6.8	5.7	5.3
	6	Shinhan Life	4.5	4.6	4.6	4.5	4.8
	7	Tong Yang Life	5.6	5.2	4.6	4.7	4.8
		Top 3	46.2	45.4	46.5	46.6	46.5
Non-life	1	Samsung Fire & Marine	23.6	25.5	23.7	23.9	23.9
	2	Hyundai Marine & Fire	17.0	16.2	16.7	15.7	16.1
	3	DB Insurance	15.5	14.9	14.7	15.5	15.6
	4	KB Insurance	12.7	12.2	12.4	12.1	12.9
	5	Meritz Fire & Marine	7.1	7.2	7.8	8.4	8.9
	6	Hanwha Non-Life	5.9	6.0	6.2	6.2	5.8
	7	Lotte Non-Life	5.2	5.0	5.7	5.8	4.2
		Top 4	68.7	68.8	67.5	67.2	68.5

1-rasm. Sug'urta kompaniyalarining bozordagi ulushi<sup>7</sup>

Koreya Respublikasida sug'urta tizimining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Mamlakat aholisining barchasi tibbiy sug'urtaga a'zo bo'lishi shart bo'lib, lekin kam ta'minlangan oila a'zolari ya'ni tibbiy yordam puli oluvchilar bundan mustasnodir.
2. Sug'urta tashkilotlari mamlakat doirasida yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etishadi. Ular tasarrufida to'plangan pul mablag'lari moliya bozori orqali davlat byudjeti taqchilligini bartaraf etishga katta hissa bo'lib qo'shilmoqda.
3. Zararni qoplovchi sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar, aytarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalardan keyin turadi.
4. Koreya Respublikasida sug'urta tashkilotlari ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan asosda o'z ishlarini tashkil qiladilar. Ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari ko'pincha bir ikki ixtisoslik yo'nalishlarida ish olib boradilar. Xulasa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakat sug'urta bozorida mijozga va ijrochiga nisbatan munosabatlardan tortib, sug'urta mukofoti summasigacha davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi. Bu o'z navbatida sug'urta firmalarini tashkil etilishi va rivojlanish imkonini beradi. Mamlakatda hayotni sug'urta qilish ustuvor hisoblanadi. Shuning uchun ham sug'urta mukofotlarining asosiy qismini hayotni sug'urtalash tashkil etadi. Buning muhim sabablari qilib tibbiy xizmatlar sifati, turmush darajasining o'sishi, tug'ulishning pastligi, aholisining tarkibida yosh bolalar ulushining kamayib borishi kabilarni aytishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://daryo.uz/2018/11/09>.
2. [www.healthcareinternational.com](http://www.healthcareinternational.com)
3. Kyung – Won Cho. “Korean Life Insurance Market” An Overview Of Sales and New Issues. Korean Insurance Development Institute. 2016. LL Global, Inc.™. 25 p.
4. <http://naver.com>, <http://www.e-insmarket.or.kr> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>7</sup> Korean insurance industry

5. Robert P. Hartwig. “International Insurance FACT BOOK” Insurance Information Institute. 2015.
6. [www.healthcareinternational.com](http://www.healthcareinternational.com)
7. Korean insurance industry 2021